

15-Iyun, 2026-yil

## JAMILA ERGASHEVANING “DEVOR” HIKOYASIDA BADIY DETALNING QO‘LLANISHI

**Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi**

*Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:*

*o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi*

*E-mail: [mutalibovamuxtaram@gmail.com](mailto:mutalibovamuxtaram@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Jamila Ergashevaning “Devor” hikoyasida badiiy detalning qo‘llanishi va uning asar poetikasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Hikoyadagi devor, hovli, yomg‘ir, suv, anor daraxti, qirchumoli hamda beshik kabi detallarning ramziy va estetik funksiyalari ochib beriladi. Muallif tomonidan qo‘llangan predmet detallari qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini hamda ular orasidagi ziddiyatlarni yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgani ilmiy asosda izohlanadi. Tadqiqot davomida badiiy detalning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni, konfliktni kuchaytirishdagi ahamiyati hamda asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini boyitishdagi funksiyasi yoritilgan. Shuningdek, hikoyadagi “devor” detalining oddiy predmetdan ramziy obraz darajasiga ko‘tarilgani va insonlar qalbidagi begonalashuv hamda mehrning yemirilishini ifodalashi tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *badiiy detal, predmet detali, portret detali, nutqiy detal, psixologik detal poetik tahlil, ramziy obraz, psixologik detal, kompozitsion unsur, realizm poetikasi, konflikt, personaj xarakteri, estetik funksiya, badiiy tasvir vositalari, ruhiy kechinma, syujet qurilishi, poetik ma‘no, obrazlilik, badiiy konsepsiya, ramziylik.*

**Abstract:** *This article analyzes the use of artistic detail in Jamila Ergasheva’s story “The Wall” and its role in the poetics of the work. The symbolic and aesthetic functions of such details as the wall, courtyard, rain, water, pomegranate tree, ant and cradle in the story are revealed. It is scientifically substantiated that the subject details used by the author served as a vital tool in illuminating the characters’ psychological state, internal experiences, and the conflicts between them. The study highlights the role of the artistic detail in revealing the character of the hero, its importance in strengthening the conflict, and its function in enriching the ideological and artistic content of the work. It is also analyzed that the detail of the “wall” in the story has risen from a simple object to the level of a symbolic image and expresses the alienation and erosion of love in the hearts of people.*

**Keywords:** *artistic detail, subject detail, portrait detail, speech detail, psychological detail, poetic analysis, symbolic image, psychological detail, compositional element, poetics of realism, conflict, character character, aesthetic function, means of artistic representation, mental experience, plot construction, poetic meaning, imagery, artistic concept, symbolism.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется использование художественной детали в рассказе Джамилы Эргашевой “Стена” и её место в поэтике произведения.*

15-Iyun, 2026-yil

*В рассказе раскрываются символические и эстетические функции таких деталей, как стена, двор, дождь, вода, гранатовое дерево, муравейник и колыбель. Научно обосновано, что использованные автором предметные детали послужили важным инструментом в освещении душевного состояния героев, их внутренних переживаний и противоречий между ними. В ходе исследования освещается роль художественной детали в раскрытии характера героя, ее значение в усилении конфликта, а также ее функция в обогащении идейно-художественного содержания произведения. Также анализируется, что деталь "стена" в рассказе поднялась с простого предмета на уровень символического образа и выражает отчуждение и разрушение любви в сердцах людей.*

**Ключевые слова:** художественная деталь, предметная деталь, портретная деталь, речевая деталь, психологическая деталь, поэтический анализ, символический образ, психологическая деталь, композиционный элемент, поэтика реализма, конфликт, характер персонажа, эстетическая функция, средства художественного изображения, душевное переживание, построение сюжета, поэтический смысл, образность, художественная концепция, символизм.

Har qanday badiiy asarni tahlil qilisha kompozitsion qurilish muhimdir hamda kompozitsion tahlil jarayonida asosan ramka unsurlari, roviy, rivoya usullari, rivoya kompozitsiyasi, nuqtayi nazar, badiiy detallar funksionalligi, personajlar sistemasi, syujet motivlari, syujet qurilishi, konflikt, kompozitsion usullarga e'tibor qaratiladi. Ulardan biri bo'lgan badiiy detalga asar tahlili jarayonida ko'p hollarda unchalik diqqat qaratilmaydi, ammo badiiy detal asar qahramoni xarakterini, ruhiy holatini yoki muayyan muhitni yorqin va aniq tasvirlash uchun xizmat qiladigan eng kichik, ammo katta ma'no yukiga ega bo'lgan tasviriy vositadir. U yozuvchiga yirik voqealarsiz ham o'quvchiga chuqur estetik ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Adabiyotshunoslikda badiiy detallar asosan predmet (buyum) detali, portret detali, nutqiy detali, psixologik (ruhiy) detal kabi turlarga bo'linadi.

**Predmet (buyum) detali:** Qahramonning tashqi qiyofasi, kiyimi yoki atrofidagi buyumlar orqali uning ichki dunyosi va ijtimoiy holatini ochib beradi.

**Portret detali:** Qahramonning tashqi ko'rinishidagi (ko'zi, qoshi, qo'li, qadam tashlashi) o'ziga xos xususiyatlar bo'lib, bu uning fe'l-atvorini anglatadi.

**Nutqiy detal:** Qahramonning so'zlashish uslubi, o'ziga xos talaffuzi yoki ishlatadigan so'zlari uning kimligini fosh qiladi.

**Psixologik (ruhiy) detal:** Qahramonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari o'zgarishini ko'rsatuvchi kichik imo-ishora yoki holat.

Biz tahlilga tortgan Jamila Ergashevaning “Devor” hikoyasida predmet detalidan foydalanilgan. Hikoyada qatnashgan *hovli-joy, devor, mevali daraxtlar, yomg'ir qirchumolilar, beshik* detallari o'ziga xos ramziy ma'no ifodalagan va hikoyasining asl mazmunini ochib berishga xizmat qilgan. Badiiy asar syujetiga aloqador eng kichik muammolardan biri — badiiy detal va tafsilotlardir. Chunki “Detallami haqqoniy tasvirlashdan tashqari, tipik xarakterlarni tipik sharoitda tasvirlash — realizmdir”, degan

15-Iyun, 2026-yil

ta‘rifni ko‘pchilik yod biladi. Bundan ko‘rinadiki, syujet voqealari (tipik sharoit) tipik xarakterlarni namoyon qilarkan, bu vazifani detallarsiz, detallarning haqqoniyligi, aniqligi, ta‘sirchanligisiz to‘la ro‘yobga chiqara olmaydi. Demak, asar detalsiz (uni “zarra” deb atasak), tafsilotsiz yashay olmaydi.

“Devor” hikoyasi yomg‘ir yog‘ishi va Toshpo‘latning ishxonasida turib uyidagi devor haqidagi o‘ylashidan boshlanadi. Toshpo‘lat onasini gapiga kirib, singlisiga tomorqadan yashash uchun yer ajratib beradi, ammo kuyovi uy solishda xatò qiladi. Uyni hovlining o‘rtasidan solidi, natijada olti derazalik uyni hammasi Toshpo‘lat hovlisiga qarab qoladi, xonadonda uchta qiz borligi hamda har doim oynalardan kimdir poylab turgandek bo‘lgani uchun Toshpo‘lat o‘rtadan devor uradi. Unda ham Toshpo‘latga singlisi ham kuyovi ham yordam bermaydi, katta o‘g‘li bilan devorni qurib bitqizadi. Singlisi devor tagiga anor ekib chiqadi. Anorlar har sug‘orilganida devor tagiga suv kirib, uni zararlaydi. Toshpo‘lat singlisiga: *“Singil, devor o‘rtalik. Oldin mayli deb o‘zim ko‘targan edim. Agar manavi uyda tarnov-parnov bo‘lganda, bu devor yuz yil turib berardi. Kamiga anor ekding. Endi devorni birgalashib ko‘taramiz. Men ham jo‘jabirday jonman. Oldinda katta-katta xarajatlar turibdi.*

— *E-e, aka, bu devorning menga umuman keragi yo‘q. Xarajatlaringiz ko‘p bo‘lsa, devor deb boshingizni og‘ritib o‘tirmang. Osmondan yoqqan Ollohning qor-yomg‘iri uchun ham meni aybdor qilmang. Akamning devorini yiqitayin deb, tomning ustiga chiqib, chelaklab suv quyib o‘tirganim yo‘q. Undan ko‘ra, ikkita mardikor olib kelib manavi yerlarni tozalatib tashlang. E-e, xudo, aka ham ota o‘rnida, deganlari bekor gap ekan.”* deb javob beradi. Shuning uchun Toshpo‘lat singlisidan ranjiydi, singlisi esa o‘z haqqini himoya qiladi. Ular bir-biridan uzoqlashib, hatto gaplashmay qo‘yishadi. Hikoyadagi “devor” faqat g‘ishtdan qurilgan devor emas, balki insonlar qalbi orasida paydo bo‘lgan sovuqlik va begonalik ramzi hisoblanadi. Shuningdek, hikoyada Toshpo‘latning kasbdoshi ham bor, uning uyidan tinimsiz qirchumolilar chiqadi. *“Bu odamda qirchumolilar haqida shunday dahshatli ma‘lumotlar ko‘p ediki, uni tinglayotganlar xuddi badanida qirchumoli o‘rmlab yurganday, eti jimirlab ketar, qancha paytlar uyidagi har bir hasharot ko‘ziga qirchumoli bo‘lib ko‘rinib ketaverardi.*

*Bir ofat bilan yigirma yil olishgach, har qanday odam o‘zi ofatga aylanmasa ham, vahimaga aylanib qoladi, shekilli. Birinchi uyidan qirchumoli chiqqanda unchalik ko‘p kuymadi. Har joydan qirchumolilar haqida ma‘lumot to‘plab, ular haqidagi vahimali gurunglar bilan hammani qo‘rqitib yurib-yurib, hovlisining adog‘idan uy tashladi. Hokimiyat qishloqning narigi boshidan yer ajratgan ekan, unamapti: “Bu yerlarda mening yetti otam o‘tgan. Men uni qayerdagi qirchumolilarga tashlab keta olmayman. Hali bu qirchumolilarning kunini ko‘rsataman”, debdi. Yangi uyini qiynalib bo‘lsa-da, faqat tsement va pishiq g‘ishtdan ko‘tardi, qirchumolilarning sevimli ozuqasi bo‘lgan yog‘och va tuproqni umuman ishlatmadi... Ammo bir kuni nevarasining beshigida qirchumolini uchratganda o‘kirib yubordi...”*

Hikoyadagi detallar “devor” - aka-singil o‘rtasidagi uzoqlik, sovuqchilik, “yomg‘ir” va “suv” - bu hayot sinovlari, “qirchumolilar” – bardoshlilik, “hovli, uy-joylar” – bu

15-Iyun, 2026-yil

dunyoni ifodalab kelmoqda. Detallarga e’tibor qaratilsa har biri ikki xil ma’noda kelmoqda, shuningdek, devor detali hikoyada obraz darajasiga ham chiqdi va hikoya nomiga aylandi. Asar oxirida Toshpo‘lat tushida onasini ko‘radi va o‘zini aybdor his qiladi. U devordan ko‘ra aka-singillik rishtasi muhimroq ekanini anglay boshlaydi. Hikoya insoniy mehr, kechirim va qarindoshlik qadri haqida chuqur ma’no beradi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning “Devor” hikoyasida badiiy detal vositasida insoniy munosabatlar, qarindoshlik rishtalari va ruhiy kechinmalar chuqur ochib berilgan. Asardagi devor, yomg‘ir, suv, qirchumoli, hovli kabi detallarning har biri ramziy ma’no kasb etib, qahramonlarning ichki dunyosi hamda ijtimoiy muhitni tasvirlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, “devor” detalining oddiy predmetdan obraz darajasiga ko‘tarilishi hikoyaning badiiy-estetik qiymatini yanada oshirgan. Yozuvchi detallardan unumli foydalanish orqali inson qalbidagi sovuqlik, begonalashuv va mehrning yemirilishini ta’sirchan ifodalagan. Hikoya orqali insoniylik, kechirimlilik va qarindoshlik qadri ulug‘lanadi. Demak, badiiy detal asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Qo‘shjonov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
  2. Karimov N. Badiiy adabiyot va tahlil masalalari. – Toshkent: Fan, 2001.
  3. Solijonov Y. Badiiy asar poetikasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
  4. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
  5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
  6. Rasulov A. Badiiylik mezonlari. – Toshkent: Fan, 2011.
  7. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
- Boltaboyev H. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.